D. Q. Xolmurodova, L.B. Islomov, D.Sh. Kiyamova

KIMYO FANIDAN MASHQ VA MASALALAR YECHISH USULLARI

Ushbu o‘quv qo`llanmadan akademik litsey va maktab o‘quvchilari, kasb-hunar kolleji talabalari, kimyo fani o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlariga kiruvchi abiturentlar va kimyoni mustaqil o‘rganuvchilar foydalanishi mumkin.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
TIBBIY KIMYO KAFEDRASI VA

AKADEMIK LITSEYI

D. Q. Xolmurodova, L.B. Islomov, D.Sh. Kiyamova

KIMYO FANIDAN MASHQ VA MASALALAR YECHISH USULLARI

Ushbu o’quv qo`llanmadan akademik litsey va maktab o‘quvchilari, kasb-hunar kolleji talabalari, kimyo fani o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlariga kiruvchi abiturentlar va kimyoni mustaqil o‘rganuvchilar foydalanishi mumkin

SAMARQAND-2024

SamDTU
axborot-resurs markazi

UDK: 54(076.1)

BBK: 24.1v6

Mualliflar:

D. Q. Xolmurodova SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi mudiri, professor.

L.B.Islomov – SamDTU akademik litsey kimyo fani yetakchi o'qituvchisi.

D. SH. Kiyamova. SamDTU tibbiy kimyo kafedrasi v.v.b dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim berilayotgan akademik litseylar o'quv dasturi asosida tuzildi.

Ushbu "Kimyo fanidan mashq va masalalar yechish usullari" nomli qo'llanmadan o'quvchilar ko'zlangan asosiy maqsad dasturda berilgan quyidagi; kimyoning asosiy qonunlari: moddalar massasining saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, gaz qonunlar, yadro reaksiyalari, kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat, eritmalar, ba'zi moddalarning suvda eruvchanligining temperaturaga bog'liqligi, foiz konsentrasiyali eritmalar tayyorlash, normal, molyar va titr konsentrasiyali eritmalar tayyorlash, reaksiya borishiga muhitning ta`siri, elektrolitik dissotsilanish, indikatorlar yordamida eritmaning muhitini aniqlash, kabi mavzularni o'zlashtirish hamda o'quv jarayonida olingan nazariy bilimlarni amalda bajarish ko'nikmalariga ega bo'lish, laboratoriya ishlarini bajarilish jarayon o'rganish nazarda tutilgan.

ISBN: 978-9910-9040-4-2

0166

© *KIMYO FANIDAN MASHQ VA MASALALAR YECHISH USULLARI*
© *ARTEXNASHR*

Kirish so‘zi

KIMYODA ASOSIY NARSA KITOBDAGI FIKRLAR EMAS, BALKI TABIATNING XAZINAVIY SIRLARINI OCHIB BERISHDIR.

M.V. LOMONOSOV.

Akademik litseylarda o‘quv-tarbiya jarayonlarini davr talablari darajasida tashkil etish uchun yangi o‘quv metodik komplekslari va pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish lozim. Kimyo fanini o‘qitishda talablarga muvofiq ravishda nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash muhim masala hisoblanadi.

Akademik litseylarning talabalari fanni chuqur o‘zlashtirishlari uchun turli kimyoviy masala va mashqlarni mustaqil echa bilishlari kerak. Talabalarda hisoblashga doir masalalarni yechish ko‘nikmasining shakllanishi, ularni ijodiy fikrlash, kimyoviy jarayonlarni har tomonlama talqin qilish, ularning mohiyatini chuqur tushunishga olib keladi. Bularning barchasi dasturni to‘liq qamrab olgan masala va mashqlar to‘plamlarining yaratilishi bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtda nashr etilgan ko‘plab masala va mashqlar to‘plamlari yangi davlat standartlari asosida yaratilgan o‘quv dasturlariga mos kelmaydi. Mazkur to‘plam shu sohadagi kamchiliklarni qisman bo‘lsada barham berishga qaratilgan. Ushbu uslubiy qo`llanma 148 sahifadan iborat bo`lib, bu uslubiy qo`llanma asosan kimyoning asosiy qonunlari: moddalar massasining saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, gaz qonunlar, yadro reaksiyalari, kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat, eritmalar, ba’zi moddalarning suvda eruvchanligining temperaturaga bog’liqligi, foiz konsentrasiyali eritmalar tayyorlash, normal, molyar va titr konsentrasiyali eritmalar tayyorlash, reaksiya borishiga muhitning ta`siri, elektrolitik dissotsilanish, indikatorlar yordamida eritmaning muhitini aniqlash kabi mavzulariga doir misol va masalalar, murakkablashgan masalalar va variantlardan masalalar va ularni turli ususllar bilan ishlash usullar yoritilgan.

To‘plamga kiritilgan masalalar oddiydan murakkabga tomon yo‘naltirilgan holda joylashtirilgan. Hisoblashga doir kimyoviy masalalarni bir necha usullar yordamida yechish mumkin. Mazkur to‘plamda masalalarni yechishning eng qisqa yo‘llari bilan bir qatorda matematik mushohada yuritishga undaydigan yechim usullari ham keltirildi. Kimyo fani matematika va fizika fanlari yutuqlariga tayanadigan fan bo‘lganligi uchun kimyoni yaxshi o‘zlashtirish bu fanlarni ham chuqur bilishni talab etadi. Shu bois to‘plamga matematik mushohadani talab etuvchi masalalar va yechimlarning kiritilishi o‘zini oqlaydi, deb hisoblaymiz.

Har bir mavzuningning boshida qisqacha nazariy ma‘lumot, formulalar, ularning izohlari keltirilgan bo‘lib, bu materiallar tavsiya qilinayotgan masala va mashqlarni yechishda talabalarga yordam beradi. Tavsiya qilinayotgan masalalarning namunaviy yechimlaridan keyin mustaqil yechishga mo‘ljallangan masala va mashqlar javoblari bilan keltirilgan. To‘plam oxirida murakkablashtirilgan va olimpiada masalalari namunalari yechimlari bilan keltirilgan.

To‘plam akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari talabalari va o‘rta umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari, shuningdek, kimyoni mustaqil o‘rganuvchilar, hamda oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilarga mo‘ljallangan.

O'QUVCHILAR ONGIGA MASALA YECHISHNING MOHIYATINI YETKAZIB BERISH VA RIVOJLANTIRISH.

Masalalar yechishda didaktik materiallardan foydalanish.

Ta'lim jarayoni rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida turli xil usul va metodalardan foydalangan holda oo'qituvchi darsni o'tish va o'tilgan darsdan yaxshi natijani olish uchun harakat qiladi. O'quvchilarni kimyo fanidan nazariy bilimlarini oshirish uchun turli ko'rgazmalar, slaydlar, tarqatma materiallar va boshqa o'quv qurollaridan foydalanadi, lekin Masalalar yechish darslarida faqat darslik yoki qo'shimcha adabiyotlardan masalalar yechish usulidan foydalalandi.

Masalalar yechish darslarida turli xil didaktik materilallar orqali o'quvchilarning ham nazariy, ham masalalar yechish usullari orqali o'quvchilarni dasrga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.Bu usullardan bir nechtasini mazkur dissertatsiya mavzuimda o'qutuvchilarga masalalar yechish darslarida qo'llash uchun tavsiya etaman.Bunda davriy jadvaldagi qizil, sariq, ko'k va yashil rangdagi elementlar rangiga mos qilib qattiq karton qog'ozdan turli xil aylana, to'rtburchak, uchburchak shaklda tarqatmalar kesib olinadi.Tarqatmaga masalalar yoziladi. Masalalarning javoblari shunday son chiqsink-ki bu son sariq kartochka bo'lsa p-oila elementlari, qizil kartochka bo'lsa s-oila elementi, ko'k rangli kartochka bo'lsa d-oila elementi va yashil kartochka bo'lsa f-oila elementining massasiga to'g'ri keladigan son chiqishi kerak.O'quvchi bu sonni keltirib chiqarganda qaysi elemetning massasi ekanligini o'rganadi, oxirida shu element haqida ma'lumot beradi.



O'qituvchi darsni nazorat qilib boradi va o'quvchilarni baholaydi. Bundan tashqari testlar, tarqatmalar tayyorlab o'zuvchilarni dars davomida bilimlarini baholash mumkin.

Olimpiada masalalari va ularni yechishda ilmiy-ommabop usullardan foydalanish.

Respublikamizda ko'p yillar davomida kimyo fanidan o'tkaziladigan olimpiadalar bir necha taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi, hozir o'quvchi yoshlarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va kuchaytirish vazifasini muvoffaqiyatli bajarib kelmoqda. Uzoq yillar davomida olimpiadalarda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilar o'z faoliyatini shu fan bilan bog'ladilar, ulardan ko'plari kimyo fanlari nomzodi va fan doktorlari bo'lib yetishdilar. Kimyo fani asoslarini faqat o'quv kitoblari yordamida o'zlashtirish mumkin deb o'ylasa noto'g'ri bo'ladi,chunki bu ko'p qirrali fanni chuqur o'zlashtirish uchun o'quv kitoblari yetarli bo'libgina qolmay, balki darsdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar qatori ommaviy tus olgan aktab, shahar, viloyat,respublika,butunittifoq va xalqaro bosqichlarda o'tkaziladigan kimyo olimpiadalari ham katta ahamiyatga ega.

Kelajak kasbini to'g'ri tanlash borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan kimyo olimpiadalari yosh avlod bilimlarini chuqurlashtirish, kimyoviy jarayonlar mohiyatini oydinlashtirish, ulardagi sodir bo'ladigan holatlarni,kimyoviy qonuniyatlarga asoslangan holda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarini tahlil qilish natijasida kimyoviy mantiqqa asoslangan mustaqil fikrlash qobilyatini uyg'otadi, mustahkamlaydi va rivoojlantiradi. Olimpiadalar o'tkazishdagi ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki taklif etiladigan masalalarning murakkabligi o'quvchilardan sezilarli darajada labaratoriya ishlarini bajarish jarayonida mohir ko'nikmalar talab qiladi.Bu talablardan birinchisi bo'yicha o'quvchilarga tavsiya etish imkoniyatimiz anchagina chegaralangan bo'lishi o'quvchi va o'qiyuvchilarga sezilarli qiyinchilik tug'diradi. Shu borada tavsiya etilayotgan to'plam qiyinchiliklarni bir oz bo'lsada kamaytiradi,degan umiddamiz. Tajriba shuni ko'rsatadiki, kimyoviy masalalarni yechish borasida kuzatiladigan qiyinchiliklar tegishli moddalarning konkret fizik va kimyoviy xossalarini bilmaslikdangina kelib chiqmay, balki masalada esga olingan ayrim holat va hodisalarni bir-biri bilan mantiqiy bog'lashdagi ko'nikmalar kamligidan yoki yo'qligidan kelib chiqadi.

Olimpiada masalalari bunday talablarni ko'plab amalga oshirishni,ko'tarilgan masalaga chuqur yondoshishni o'quvchi yoshlar uchun odat bo'lib qolishni amalga oshirishni ta'minlovchi muhim uchun odat bo'lib qolishni amalga oshirishni ta'minlovchi muhim vositadir. Anoganik kimyoga tegishli masalarni yechish uchun moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalarini, eritmada kation hamda anionlarni sifat jihatdan aniqlashga xos reaksiyalarni, aralshma tarkibiga kiruvchi moddalarni bir-birini ajratish usullarini topish, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining muhit sharoitiga qarab yo'nalishlarning o'zgarishini kimyoviy qonuniyatlar va umuman aytganda masala sharti talab etishi mumkin bo'lgan hamma jarayonlar o'quvchiga ayon yoki oson tiklanadigan bo'lishi kerak. Kimyoviy masalalarning xili juda ko'p bo'lib, ularning ko'pchiligi hisoblashga doir masalalardir. Bu masalar umumiy kimyoning asosiy qismiga taalluqli bo'lib, nazariy hamda tavsifiy ma'lumotlarni o'rganish bilan uzviy bog'liqdir.

Kimyoviy maslalarni yechish kimyo fanini ilmiy nazariy bilim asoslarini egallashning muhim omilidir. U yoshlarda mustaqil fikrlash qobilyatini o'stirishda ularning nazariy bilim va tushunchalarini mustahkamlashda hamda bu bilimlarni amalda tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Masalalar yechish o'quvchi va talabalarda mehnatsevarlik, qat'iylik, ma'suliyatni his etish, mustaqillik, mantiqan fikrlash, iroda va

xarakter hamda qo'yilgam maqsadga yetishga erishish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Kimyo faninig rivojlanish tarixi.XIX asrda ma'danli konlar metallurgiyaga xos jarayonlar shisha chinni, kislota,asos va tuzlar ishlab chiqarishga doir tahliliy tadqiqotlar asosida rivoj topgan. O'sha zamonda soda tayyorlash, sulfat kislotani katalizatir ishtirokida ishlab chiqarish,maxsus po'latlar yaratish, metallshunoslik sohasidagi jarayonlarni o'zlarining birinchi o'rindagi muvaffaqiyatli deb bilishar edilar.

Kimyodan masalalar yechishda AKT dan foydalanish

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) biznes, iqtisodiyot, sayohat, nashriyot, ta'limning asosiy sohalarida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. AKT globallashuvga ta'sir etadigan, butun dunyoni yagona yaxlit qiladigan kuch va imkoniyatlarga ega.AKT ni o'quv jarayoniga integrasiyasi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda o'qituvchilar oldida yangi vazifalar qo'yadi. Biz bo'r va sinf taxtasidan foydalanish usulini proektorlar, yanada dinamik texnologiyalar, axborotni izlash va u bilan ishlash, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishga alamashtirishimiz kerak.

Kimyo- fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega. Kimyoda biz kimyoviy voqealarni "makro-darajada" kuzatamiz "mikro-darajada" talqin qilamiz va tushuntiramiz va keyin "ramziy darajada" (formula, tenglama, grafik tuzulishi, masalalar yechish va boshqalar asosida) taqdim etamiz.

Haqiqatanam ham o'quvchi uchun bilimlar va mazmunning uch darajasini muvofiqlashtirish juda murakkab. Bugungi kunda veb- va interaktiv o'qitish. Animasiya, modellashtirish va boshqalardan foydalanish imkonini berayotgan AKT sohasida erishilgan taraqqiyot kimyoni tushunishni yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biz Internet resurslaridan onlayn rejimida ochiq axborotlardan foydalanishimiz zarur. O'quvchilarga grafik tasvirlar ko'rsatilishi zarur, molekulalar tuzilishini uch o'lchamli shaklda ko'rishiga imkon berilishi kerak. Xuddi shunday laboratoriya eksperimentlarini modellashtirish o'quvchilarimizga real maktab laboratoriyasida o'tkazilishi muammo bo'ladigan murakkab eksperimentlarni boshharish imkonini beradi. Biz AKTdan o'hituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi kimyoning dunyoviy muammolari bilan bog'liq bo'lgan munozara yig'ilishlardagi aloqalarga ko'maklashish maqsadida foydalanishimiz kerak.Biz o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va fanning yanada rivojlanishini ta'minlashimiz kerak.

AKT o'quvchilarga axborotni ko'zga ko'rinadigan qilib qabul qilish imkonini beradi.Kimyoda qiyin atom-molekulyar jarayonlarni abstraksiya orqali tushunishga harakat qilishimiz misollari ko'p. Masalan elektron bulut va elektronlar qo'zg'alishi, struktur izomeriya, molekulyar konfigurasiya doirasidagi o'zgarishlar, gibrid orbitallar va h.k., ro'yxatni davom ettirish mumkin.Siz ko'proq misollar keltirishingiz mumkin (ularni sanab ko'ring).

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki animasiya va modellashtirish harakatning molekulyar shakllarini konseptual tushunchalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.Dasturiy ta'minotning

molekulyar vizualizasiyasi dinamik tasvir tushunchasini yaratadi bu esa boshqa yo'l bilan yaratish qiyin bo'lgan jarayonlar konseptuallashining kuchli va muhim ko'makini ta'minlaydi. Shunday qilib, vizual ko'nikmalar va fikrlash sezilarli darajada animasiyalar va dasturiy ta'minotni modellashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Animasiya va simulyasiya

Kompyuter animasiyasi va modellashtirish kimyoviy tuzilmalar va jarayonlarni tushunish uchun universal asbob bo'ladi. Animasiyalarda ketma ket diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar va b. hamda kimyoviy reaksiyalar paytida sodir bo'ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi.

Simulyasiya kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratadi hamda dasturiy ta'minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma'lum parametrlarini o'zgartirish imkonini beradi.

Animasiyaning bir necha misollari o'qitish simulyasiyasi:

1. Laboratoriyalarda virtual eksperimentlarni tashkil qilish kamroq vaqt talab qiladi va jihozlardan foydalanish hamda natijalar bilan ishlashda xatoliklarga yo'l qo'ymaydi.
2. Kimyoviy reaksiyalar jarayonlarini ishlash.
3. Atomlardan molekulalar qurish.
4. Titrlash bilan bog'liq eksperimentlarni simulyasiya qilish.

Kimyo o'qituvchilari uchun real muammo - o'quvchilar kimyoni ko'rinadigan (makro), molekulyar / atom (mikro) va ramziy darajalarda tushunishini osonlashtirishdan iborat.

Shuning uchun animasiyadan foydalanish o'quvchilar tushunishini yengillashtiradi, ko'pchilik kimyoviy jarayonlarni ko'rinadigan qilib ifodalaydi.

Animasiya yaratish, rasm chizish, saytlarni yaratish uchun odatda foydalanadigan dasturiy ta'minot:FLASH, FreeXand, Dreamveaver va Feyerverklar (Firevorks.

Java dasturlash tili interaktiv xususiyatlarga ega Java-appletlar yaratish uchun qo'llaniladi.

Virtual kimyoviy laboratoriya

Dastur animasiya tenglama va boshqalar shaklida foydalanish mumkin bo'lgan reaksiyalar bazasi va laboratoriya jihozlari hamda kimyoviy moddalar to'plamiga ega. Virtual laboratoriya dasturi turli moddalar bilan eksperimentlarni vizual (ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan qilib) o'tkazish imkonini beradi.

Turli dasturlar - virtual laboratoriyaning dasturiy ta'minoti qo'shimcha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastur bilan ishlashni osonlashtirish uchun "assistent" tushunchasi, hisob-kitoblar asosida tuzilgan o'zgartirigichlar majmui, eksperimentlarni qayd qilish uchun laboratoriya jurnali mavjud.

Kimyodan AKT resurslar

Virtual laboratoriya bo'yicha dasturiy ta'minot - bu o'quvchilar eksperimentlar o'tkazishi mumkin bo'lgan, kimyoviy moddalar va ularning miqdori, idish, jihozlar va boshqa narsalarni tanloviga nisbatan qaror qabul qilish imkonini beradigan dasturdir.

Bunday dasturlani yuqori darajadagi moslashuvchanlik va nazorat darajasi tavsiflaydi. Virtual laboratoriya yana bir qancha afzalliklarga ega, ular yordamida o'qituvchi va o'quvchilar qo'yilgan maqsadlar, jihozlar, kimyoviy moddalar va reaksiyalar hamda sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda eng samarali eksperimentlarni tanlashlari mumkin. Bunday rejalashtirish mustaqil o'rganish orqali potensial qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aslida virtual eksperimentlar - bu amalda o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Atomlar va molekulalar soni b`oyicha misol va masalalar yechish

1. $(NH_4)_2Cr_2O_7$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping.

A) 66,6 **B) 79,1** S) 87 D) 55

Yechish:

Masalani shartiga diqqat bilan e`tobor berilsa, bu erda hosil bo`lgan moddalar tarkibida qattiq moddalarning atomlar soni o`zaro teng deyilgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi. Reaksiya tenglamasini yozamiz va birinchi o`rinda qattiq moddalarni aniqlaymiz.

$(NH_4)_2Cr_2O_7 \xrightarrow{t^\circ} N_2\uparrow + 4H_2O + Cr_2O_3$

Bu yerda qattiq modda Cr_2O_3, boshqa qattiq modda yo`q. Masalani shartiga diqqat bilan qarasak reaksiya unumi so`ralgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki ammoniy dixromatning ma`lum bir qismi parchalanmagan.

$(NH_4)_2Cr_2O_7 \xrightarrow{t^\circ} N_2\uparrow + 4H_2O + \mathbf{Cr_2O_3}$

$(NH_4)_2Cr_2O_7 \xrightarrow{t^\circ} \mathbf{(NH_4)_2Cr_2O_7}$

Parchalanmagan moddani bir mol deb tasavvur qilamiz va undagi atomlar sonini hisoblaymiz. Demak bir mol ammoniy dixromatda 19 ta atom bor. Parchalangan ammoniy dixromatdan hosil bo`lgan $Cr_2O_3$ da ham 19 ta atom bo`lgan.

Cr_2O_3 1 molida -------5 ta atom

X molida-------19 ta atom

X= 3,8 mol Cr_2O_3 kelib chiqdi.

Demak yuqorida parchalangan ammoniy dixromat 3,8 mol bo`lgan. Parchalanmagan ammoniy dixromat esa 1 mol bo`lgan. Bundan shuni topish mumkin. 1+ 3,8 = 4,8 mol dastlabki ammoniy dixromat

4,8 mol-------100%

3,8 mol ------ x % ***x= 79,1 % to`g`ri javob B***

Mustaqil ishlash uchun misol va masalalar

1. $CuCO_3$ * $Cu(OH)_2$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping.

A) 75 B) 66,6 **C) 71,4** D) 92

2. $Cu(NO_3)_2$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping.

A) 75 B) 66,6 **C) 81,8** D) 93

3. $AgNO_3$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping.

A) 75 B) 66,6 **C) 83,3** D) 94,5

4. $NaHCO_3$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping.

A) 55 **B) 66,6** S) 83,3 D) 45

5. $Ca(HCO_3)_2$ qizdirilganda hosil bo‘lgan ikki xil qattiq moddalarning atomlar soni o‘zaro teng. Reaksiyaning unumini (%) toping. (ohakni parchalanishini hisobga olmang)

A) 75 **B) 68,75** S) 84,5 D) 42

Yadro reaksiyalari mavzusiga doir misol va masalalar yechish

1. $^{232}Th + x\alpha \rightarrow E + 2\beta + 4n$ Ushbu yadro reaksiyasida 46,4 mg Th parchalangan bo`lsa, necha mg E hosil bo`lgan? (Th va E o`zaro izoton)

Ushbu masalani yechishga quydagicha yondashish mumkin.

Tenglamali usul

I. Noma'lum elementning massasini A, zaryadini esa Z deb olsak, o'ng va chap tomonlarning ham massalari, ham zaryadlarining tengligi inobatga olingan holda quyidagi tenglamalar kelib chiqadi:

$232 + 4x = A + 4$ bundan

$A = 232 + 4x-4 = 228 + 4x$

$90 + 2x=Z-2$ bundan

$Z=90 + 2x+2 = 92 + 2x$

II. Toriyning neytronlar soni 232 - 90 = 142 chiqadi, ulaming izotonligiga ko'ra noma'lum elementda ham shuncha neytron bo'ladi. Endi A elementining neytronlar soni bo'yicha tenglama tuzamiz:

$A - Z = 142$

III. A va Z ning o'miga avvalroq topilgan qiymatlami qo'yib chiqamiz va tenglamani yechamiz:

$(228 + 4x) - (92 + 2x) = 142$

$228 + 4x - 92 - 2x = 136 + 2x = 142$

$142 - 136 = 2x$

$6 = 2x$

$x=3$

IV. Endi yadro reaksiyasi tenglamasini to'liq holga keltirsak ham boiadi:

$^{232}Th + 3\alpha \rightarrow E + 2\beta + 4n$

bundan E ning zaryadi $90 + 6 + 2 = 98$, massasi esa $232 + 12 - 4 = 240$ demak,

$E = {}^{240}Cf$.

V. Tayyor tenglamadan proporsiya usuli orqali kaliforniy massasini toping.

232 mg Th------ 240 mg Cf hosil bo'ladi

46,4 mg Th ------ x

$x = 46,4 * 240 / 232 = 48$ mg *To'g'ri javob:* V

2 usulda esa quydagicha ya`ni tenglamasiz usuli

Reaksiyaning har ikki tarafida neytronlar soni teng bo'lishi kerakligi va Th va E izotonligini inobatga olgan holda, ulardagi neytronlarni qisqartirib yuborsak, chap tomondagi α - zarrachalardagi neytronlar soni o'ng tomondagilarga teng bo'lishi kerak. Elektron erkin holda yadroda bo'lolmaydi, shuning uchun u protonga birikib (proton musbat zaryadli bolganligidan yadroga yaqinlashgan manfiy zaryadli elektron unga qo'shilib ketadi) neytron hosil qiladi. Demak, 2 ta elektron 2 ta protonni neytronga aylantirib yuboradi va ajralgan 4 ta neytron bilan umuman 6 ta neytron bo'lib qoladi. Unga mos kelishi uchun chap tomonda har biri ikkitadan neytron tutgan 3 ta a-zarracha kerak bo'ladi. Qolgan amallar avvalgi usulning 4 va 5- bandlaridek bo'ladi.

2. ***Yadro reaksiyalarining yana bir ko`rinishi***

1.Quyidagi yadro reaksiyasida 9,44 mg uran reaksiyaga qatnashib $12,04 \cdot 10^{19}$ ta neytron ajralsa, hosil bo'lgan izotopni ko'rsating. $^{236}_{92}U + {}^{17}O \rightarrow A + x\,{}^{1}_{0}n + 7h\nu$

A) eynshteniy-249 ***B) fermiy-248***

C) berkliy-248 *D) fermiy-257*

Yechish:

9,44 mg U ------ $1,204 * 10^{20}$ dona neytron

236 mg U ------ $x = 30,1 * 10^{20}$

$n = \dfrac{30,1 * 10^{20}}{6,02 * 10^{20}} = 5$ *dona neytron ajraladi.*

$^{236}_{92}U + {}^{17}O \rightarrow A + 5\,{}^{1}_{0}n + 7h\nu$ bo`ladi.

$^{236}_{92}U + {}^{17}_{8}O \rightarrow {}^{248}_{100}A + 5\,{}^{1}_{0}n + 7h\nu$

To`g`ri javob $^{248}_{100}A$ kelib chiqdi.

3. $Md+2\alpha \rightarrow {}^{257}_{103}Lr + x_{-}\beta + y{}^{1}_{0}n$. Ushbu yadro reaksiyasi asosida 10,28 mg lourensiy va $16,85 \cdot 10^{19}$ dona neytron hosil bo'ldi. Md izotopining nisbiy atom massasini toping.

A) 257 B) 256 C) 258 D) 254

Yechish:

10,28 mg Lr------ $1,685 * 10^{20}$ dona neytron

257 mg Lr------ $x = 42.125 * 10^{20}$ dona neytron

$$n = \frac{42,125 * 10^{20}}{6,02 * 10^{20}} = 7 \text{ dona neytron ajraladi.}$$

$$Md_{101} + 2{}^{4}_{2}\alpha \rightarrow {}^{257}_{103}Lr + x_{-}\beta + 7{}^{1}_{0}n.$$

Yuqoridagi tenglamaga binoan Lr^{257} va neytron massalar yig`indisi tenglamaning chap tomonidagi Md va α zarrachalarning massalar yig`indisiga teng bo`lishi kerak. Demak chap tomonga

$257+7 = 2*4 + x$

$x = 264 - 8$

$x = 256$

$$Md^{256}_{101} + 2{}^{4}_{2}\alpha \rightarrow {}^{257}_{103}Lr + x_{-}\beta + 7{}^{1}_{0}n.$$

Endi zaryadlarni tenglashtiramiz. Tenglamani chap tomonida 101+4 =105 ga teng. Tenglamani o`ng tomoni ham 105 bo`ladi. .Demak 105-103 = 2

$$Md^{256}_{101} + 2{}^{4}_{2}\alpha \rightarrow {}^{257}_{103}Lr + 2_{-}\beta + 7{}^{1}_{0}n.$$

4. ${}^{238}_{92}U \rightarrow x\alpha + y_{-}\beta + {}^{218}_{86}Rn + 10h\lambda$. Ushbu yadro reaksiyasida 952 mg uran emirilgan bo'lsa, necha dona elektron hosil bo'ladi?

A) $45,43 \cdot 10^{16}$ B) $36,12 \cdot 10^{20}$

C) $10,53 \cdot 10^{22}$ D) $96,32 \cdot 10^{20}$

Yechish: Bu yerda oldin reaksiya tenglamasining chap va o`ng tomonlari tenglashtiriladi.

$${}^{238}_{92}U \rightarrow x\alpha + y_{-}\beta + {}^{218}_{86}Rn + 10h\lambda$$

tenglamaga binoan o`ng tomonga α zarracha oldiga 5 quyiladi. ya`ni 238-218 = 20/4 = 5

$${}^{238}_{92}U \rightarrow 5{}^{4}_{2}\alpha + y_{-}\beta + {}^{218}_{86}Rn + 10h\lambda$$

Zaryadlar yig`indisini ko`rib chiqsak chap tomon 4 taga kam. Qoidaga binoan $_{-}\beta$ zarracha tenglamaning qaysi tomonida bo`lsa uning son qiymati tenglamaning qarama-qarshi tomoniga qo`shiladi.demak 4 $_{-}\beta$ kelib chiqadi.

$${}^{238}_{92}U \rightarrow 5{}^{4}_{2}\alpha + 4_{-}\beta + {}^{218}_{86}Rn + 10h\lambda$$

238 mg U dan ------- $4*6,0210^{20}$

952 mg U dan ------ $x = 96,32 * 10^{20}$ dona

electron hosil bo`ladi.To`g`ri javob D

5. Neptuniy-240 izotopi radioaktiv emirilishida toriy-224 yadrosiga aylanadi. Bu parchalanishda hosil bo'lgan α va β- zarrachalar miqdorini aniqlang.

A) 2α va 3β B) 3α va 4β

C) 5α va 4β D) 4α va 5β

Yechish: ${}^{240}_{93}Np \rightarrow {}^{224}_{90}Th + 4{}^{4}_{2}\alpha + {}_{-}\beta$

Reaksiya tenglamasining chap va o`ng tomonlar massalarini tenglashtirsak 240-224=20 kelib chiqadi. Demak tenglamaning o`ng tomonida 4 ta α zarracha bo`ladi. Endi zaryadlarga e`tibor bersak chap tomon 93 ga. o`ng tomon esa 90 + 8 = 98 ga teng. Tenglamadan ko`rinib to`ribdiki chap tomonga 5 ta zaryad yetmayapti. Qoidaga binoan $_{-}\beta$ zarracha tenglamaning qaysi tomonida bo`lsa uning son qiymati tenglamaning qarama-qarshi tomoniga qo`shiladi.Endi tenglamaning o`ng tomoniga 5 $_{-}\beta$ quyish kerak.

$${}^{240}_{93}Np \rightarrow {}^{224}_{90}Th + 4{}^{4}_{2}\alpha + 5_{-}\beta$$

To`g`ri javob D 4α va 5β

6. $Ac \rightarrow Pb + x\alpha + y_{-}\beta$ Aktiniy izotopi parchalanganda 41,6-mg qo'rg'oshin va $6,02*10^{20}$ dona elektron hosil boldi.Reaksiyaga qatnashgan aktiniy izotopining neytronlar sonini ko'rsating. (Aktiniy atomida neytronlar soni qo'rg'oshinnikidan 17 ta ko'p)

A) 141 B) 135 C) 139 D) 143

Yechish:

I.Aktiniy tarkibidagi neytronlar qo'rg'oshin nikidan 17 taga ko'p ekan, bundan tashqari aktiniyning yadro zaryadi 89 bo'lib qo'rg'oshinnikidan (82) 7 taga katta. Demak, ulardagi protonlar farqi 7 ga teng. Proton va neytron farqlari yig'indisi (17 + 7 = 24) esa massa farqini beradi. Ajralib chiqayotgan elektronning massaga ta'siri yo'qligini va har bir α -zarrachaning massasi 4 m.a.b. ekanligini bilgan holda reaksiya tenglamasida 6 ta α -zarracha qatnashishini aniqlaymiz.

$Ac \rightarrow Pb + 6\alpha + y_{-}\beta$

II.Tenglamadagi zaryad farqlaridari foydalanib elektronlar sonini topamiz:

Chap tomonda 89, o'ng tomonda esa 82 + 12 = 94. Zaryad farqi 5 bo'lib u elektronlar soniga teng.

III. Endi tenglamani to'liq holda yozib olamiz va masalada berilgan kattaliklar orqali proporsiya usulida avval qo'rg'oshinning massasini aniqlaymiz:

$Ac \rightarrow Pb + 6\alpha + 5_{-}\beta$

41,6 mg Pb -----$6,02*10^{20}$ ta elektron

x g Pb ------ $30,1*10^{23}$ ta elektron

x = 30,1 * 41,6/6,02 = 208 g

IV. Keyinchalik esa aktiniyning massasi va neytronlar sonini aniqlaymiz:

208 m.a.b. Pb + 6*4 m.a.b. = 232 m.a.b.

232 - 89 = 143 ta neytron.

To'g'ri javob: **D**

7. $^{235}A \rightarrow ^{144}B + ^{89}C + 2\,^{1}_{0}n$ Ushbu yadro raksiyasida A element tarkibidagi neytronlar soni B element tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko`p. B element tarkibidagi neytronlar soni C element tarkibidagi neytronlar sonidan 35 taga ko`p. A element yadro zaryadini toping.

A)36 B)56 C) 92 D) 89

Yechish:

$^{235}_{x}A \rightarrow ^{144}_{y}B + ^{89}_{z}C + 2\,^{1}_{0}n$ *bilan belgilab olamiz.*

Zaryadlar quydagicha bo`ladi. Ya`ni B va C ning zaryadlar yig`indisi A nikiga teng bo`ladi.

$x = y+z$

$235-x = 144-y+55$

$144-y = 89-z+35$

Bu tenglam ishlansa, z=36 kelib chiqadi. Undan ikkinchi tenglamani ya`ni y ni topamiz

$235-y = 89-36+35$

$y = 56$

$x = y+z$ *ekanligini e`tiborga olib, z=36 va y=56 x=92 kelib chiqadi. (36+56 =92)*

Demak: $^{235}_{92}A \rightarrow ^{144}_{56}B + ^{89}_{36}C + 2\,^{1}_{0}n$

8. $^{235}A \rightarrow ^{144}B + ^{89}C + 2\,^{1}_{0}n$ Ushbu yadro raksiyasida A element tarkibidagi neytronlar soni C element tarkibidagi neytronlar sonidan 90 taga ko`p. B element tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko`p. A va B element neytronlar nisbatini toping.

A)1,66 B)1,625 C) 2,6981 D) 0,615

Yechish:

$^{235}_{x}A \rightarrow ^{144}_{y}B + ^{89}_{z}C + 2\,^{1}_{0}n$ *bilan belgilab olamiz.*

Zaryadlar quydagicha bo`ladi. Ya`ni B va C ning zaryadlar yig`indisi A nikiga teng bo`ladi.

$x = y+z$

$235-x = 89-z+90$

$235-x = 144-y+55$

Bu tenglam ishlansa, y=56 kelib chiqadi. Undan ikkinchi tenglamani ya`ni y ni topamiz.

235-x = 144-56+55
x= 92
z=x-y ekanligini e`tiborga olib, x=92 va y=56 z=36 kelib chiqadi. (36+56 =92)
Demak: $^{235}_{92}A \rightarrow ^{144}_{56}B + ^{89}_{36}C + 2^{1}_{0}n$
N=Ar-P 235-92=143
N=Ar-P 144-56=88
*nisbatlar topilsa*143/88=1,625 **B**

9. $^{235}A \rightarrow ^{144}B + ^{89}C + 2^{1}_{0}n$ Ushbu yadro raksiyasida A element tarkibidagi neytronlar soni C element tarkibidagi neytronlar sonidan 90 taga ko`p. B element tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko`p. A va C element neytronlar nisbatini toping.
A)1,66 B)1,625 C) 2,7 D) 0,615
Yechish:
$^{235}_{x}A \rightarrow ^{144}_{y}B + ^{89}_{z}C + 2^{1}_{0}n$ *bilan belgilab olamiz.*
Zaryadlar quydagicha bo`ladi. Ya`ni B va C ning zaryadlar yig`indisi A nikiga teng bo`ladi.
x= y+z
235-x = 89-z+90
235-x = 144-y+55
Bu tenglam ishlansa, y=56 kelib chiqadi. Undan ikkinchi tenglamani ya`ni y ni topamiz.
235-x = 144-56+55
x= 92
z=x-y ekanligini e`tiborga olib, x=92 va y=56 z=36 kelib chiqadi. (36+56 =92)
Demak: $^{235}_{92}A \rightarrow ^{144}_{56}B + ^{89}_{36}C + 2^{1}_{0}n$
N=Ar-P 235-92=143
N=Ar-P 89-36=53 to`g`ri javob C

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. $^{252}_{z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 6^{1}_{0}n + 2^{0}_{-}\beta$ ushbu yadro reaksiyasida E va Fm o`zaro izoton bo`lsa, E tarkibidagi zarrachalarning necha % ni neytronlar tashkil etadi.
A) 44 B)44,7 C)45,6 D)42,6

2. $^{252}_{z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 6^{1}_{0}n + 2^{0}_{-}\beta$ ushbu yadro reaksiyasida E va Fm o`zaro izoton bo`lsa, Fm tarkibidagi neytronlar sonini toping.
A) 154 B)152 C)148 D)124

3. $^{252}_{z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 6^{1}_{0}n + 2^{0}_{-}\beta$ ushbu yadro reaksiyasida E va Fm o`zaro izoton bo`lsa, Fm tarkibidagi elektronlar va neytronlar yig`indisini toping.
A) 254 B)245 C)252 D)244

4. $^{252}_{z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 6^{1}_{0}n + 2^{0}_{-}\beta$ ushbu yadro reaksiyasida E va Fm o`zaro izoton bo`lsa, Fm tarkibidagi zarrachalarning necha % ni elektronlar tashkil etadi.
A) 28,2 B)22,7 C)27,6 D)24,8

5. $^{252}_{z}E + x^{4}_{2}\alpha \rightarrow ^{A}_{100}Fm + 6^{1}_{0}n + 2^{0}_{-}\beta$ ushbu yadro reaksiyasida E va Fm o`zaro izoton bo`lsa, Fm tarkibidagi zarrachalarning necha % ni neytronlar tashkil etadi.
A) 43,5 B)45,3 C)44,6 D)42,6

6. $^{257}_{100}Fm \rightarrow Bk + xHe + y\_\beta$ 20,56 mg Fm parchalanganda $2{,}408 \cdot 10^{20}$ ta elektron hosil bo`lsa Vk izotopining massasini aniqlang.
A) 245 B) 247 C) 241 D) 243

7. $^{242}_{94}Pu + {}^{22}Ne \rightarrow A + x^{1}_{0}n + 5h\lambda$. Ushbu yadro reaksiyasida 7,26 mg plutoniy izotopi reaksiyaga qatnashib $72{,}24 \cdot 10^{18}$ ta neytron ajralsa, hosil bo'lgan izotopni aniqlang.
A) nilsboriy-260 B) lourensiy-250
C) kurchatoviy-261 D) kurchatoviy-260

8. $^{225}_{96}Cm + 3\alpha \rightarrow x_{-}\beta + y^{1}_{1}H + ^{232}_{93}Np$ Ushbu yadro reaksiyasida 675 g kyuriy reaksiyaga kirishgan bo'lsa, hosil bo'lgan pozitron (+β) miqdorini hisoblang.
A) 20 B) 16 C) 12 D) 4

9. $^{250}_{98}Cf \rightarrow x\alpha + y_{-}\beta + 5\gamma + ^{238}_{96}Cm$ Ushbu yadro reaksiyasida $72{,}28 \cdot 10^{19}$ dona elektron ajralsa, reaksiyaga kirishgan kaliforniy izotopining miqdorini (mg) hisoblang.
A) 62 B) 98 C) 75 D) 87

10. $_{90}Th \rightarrow {}_{82}Pb + x\alpha + y\beta^{-}$
Th izotopi parchalanganda 41,6 mg Pb va $48{,}16 \cdot 10^{19}$ dona elektron hosil bo'ladi. Th izotopidagi neytronlar sonini toping. (Th atomida neytronlar soni Pb nikidan 16 taga ko'p).
A)142_ B)232 C)208 D)126

11. $_{94}Pu \rightarrow {}_{82}Pb + x\alpha + y\beta^{-}$
24,4 mg Pu izotopi parchalanganda $36{,}12 \cdot 10^{19}$ dona elektron hosil bo'ladi. Pu izotopidagi neytronlar sonini toping. (Pu atomida neytronlar soni Pb nikidan 24 taga ko'p).
A)150_ B)244 C)208 D)126

12. $_{96}Cm \rightarrow {}_{82}Pb + x\alpha + y\beta^{-}$
Cm izotopi parchalanganda 62,4 mg Pb va $108{,}36 \cdot 10^{19}$ dona elektron hosil bo'ladi. Cm izotopidagi neytronlar sonini toping. (Cm atomida neytronlar soni Pb nikidan 26 taga ko'p).
A)152 B)248 C)208 D)126

13. $_{100}Fm \rightarrow {}_{82}Pb + x\alpha + y\beta^{-}$
38,4 mg Fm izotopi parchalanganda $54{,}18 \cdot 10^{19}$ dona elektron hosil bo'ladi. Fm izotopidagi neytronlar sonini toping. (Fm atomida neytronlar soni Pb nikidan 30 taga ko'p).
A)156 B)256 C)204 D)126

14. $^{235}A \rightarrow {}^{144}B + {}^{89}C + 2\,^{1}_{0}n$ Ushbu yadro raksiyasida A element tarkibidagi neytronlar soni B element tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko`p. B element tarkibidagi neytronlar soni C element tarkibidagi neytronlar sonidan 35 taga ko`p. A va B element yadro zaryadlar yig`indisini toping.
A)143 B)148 C) 128 D) 92

15. $^{235}A \rightarrow {}^{144}B + {}^{89}C + 2\,^{1}_{0}n$ Ushbu yadro raksiyasida A element tarkibidagi neytronlar soni B element tarkibidagi neytronlar sonidan 55 taga ko`p. B element tarkibidagi neytronlar soni C element tarkibidagi neytronlar sonidan 35 taga ko`p. A va C element yadro zaryadlar yig`indisini toping.
A)143 B)148 C) 128 D) 92

Yadro reaksiyalariga oid yangi tipdagi masalalar va ularning yechimlari.

1-misol. Quyidagi yadro reaksiyasida 9,44 mg uran reaksiyaga qatnashib $12{,}04 \cdot 10^{19}$ ta neytron ajralsa, hosil bo'lgan izotopni ko'rsating.
Yechish: 1) Reaksiya tenglamasidan foydalanib, 1 mol urandan necha dona neytron hosil bo'lishini aniqlaymiz;

9,44 mg urandan —— 12,04·1019 dona neytron hosil bo'ladi
236000 mg urandan —— x dona neytron hosil bo'ladi

$$x=301000\cdot10^{19}=30{,}1\cdot10^{23}$$

2) hosil bo'lgan neytron miqdoridan foydalanib, izotopni aniqlaymiz; $n({}_0^1n)=\dfrac{30{,}1\bullet10^{23}}{6{,}02\bullet10^{23}}=5$

bundan, ${}_{92}^{236}U+{}_{8}^{17}O\rightarrow{}_{100}^{243}A+5{}_0^1n+7h\nu$

2-masala. Element izotopining massasi $1{,}8438\cdot10^{-25}$ kg ga teng. Izotopning nisbiy atom massasini aniqlang? (Uning yadrosidagi protonlar soni 47 ta)

Yechimi:Izotoplarning nisbiy atom massasi quyidagi formula bilan topiladi:

$$Ar = Ab\cdot6{,}02\cdot10^{23}$$

Buning uchun izotop massasini kg dan g ga o'tkazamiz:

$$1{,}8438\cdot10^{-25}\text{ kg}=1{,}8438\cdot10^{-22}\text{ g.}$$

So'ngra yuqorida ko'rsatilgan formulaga qo'yamiz:

$$Ar = Ab\cdot6{,}02\cdot10^{23}=1{,}8438\cdot10^{-22}\cdot6{,}02\cdot10^{23}=111$$

3-masala. Izotop yadrosining tarkibidagi elementar zarrachalar umumiy yigindisi (p+n+e) ga nisbatan 30,6 % ni proton tashkil etsa, izotopning nisbiy atom massasini aniqlang? (Izotop yadrosida 33 ta neytron bor deb hisoblang)

Yechimi: Neytral atomda proton soni elektron soniga teng bo'ladi. Izotop yadrosining 30,6 % ni proton tashkil etsa, 30,6 % ni elektron tashkil etadi. Agar $p + n + e^- = 100$ % bo'lsa, unda $n = 100 - (p + e^-)$ bo'ladi. $n = 100 - (30{,}6 + 30{,}6) = 38{,}8$ % demak izotop yadrosining 38,8 % ni neytron tashkil etadi.

30,6 % p —— 38,8 % n

x ta p —— 33n

$$x=\frac{33\cdot30{,}6}{38{,}8}=26 \quad taaproton$$

Izotopning nisbiy atom massasi: Ar = P+ N = 26 + 33 = 59 ga teng. ${}_{26}^{59}Fe$

4-masala. Izotop yadrosi 82 ta neytron va 40,58 % protondan iborat. Izotopning nisbiy atom massasini toping?

Yechimi: Atomdagi proton va neytronlar 100 foizni tashkil etadi.

$$R\ \% + N\ \% = 100\ \%$$

$$N\% = 100\ \% - P\% = 100-40{,}58 = 59{,}42\%$$

Izotop yadrosida 82 ta neytron borligi masala shartidan ma'lum, shundan foydalanib izotop yadrosidagi protonlar sonini aniqlab olamiz. Izotop yadrosining 40,58 % proton tashkil etsa, 59,42 % ni esa neytron tashkil etadi.

40,58 % proton —— 59,42 % neytron

x ta proton —— 82 ta neytron

$$x=\frac{40{,}58\cdot82}{59{,}42}=56$$

Izotop yadrosida 56 ta proton borligi ma'lum bo'lsa, uning nisbiy atom massasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Ar = P+ N = 56+82 = 138 ya'ni ${}_{56}^{138}Ba$

Nomalum metallni aniqlash: Kristallogidratlar mavzusi bo`yicha misol va masalalar yechish. Kristallogidratlar.

1. $Me_2CO_3 \cdot 8H_2O$ ozining massasidan 3 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Me_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 40,4% li eritma olindi Me ni toping?
Yechimi: Kristallogidratni 100 g deb olsak 300 g suv qushilgan bo`ladi 100÷300=400 g eritma. 400 ni yarmicha yani 200 g tuz qushildi 400+200=600g. 600×0,404=242,4 gr tuz. 242,4-200=42,4 gr kristallogidrat tarkibidagi tuz
1) 100-42,4=57,6g suv
2) 57.7-------42,4
8×18-------x=106g Me_2CO_3 3) 106-60=46 4) 46/2=23 Na

2. Atomlar soni o'zaro teng bo'lgan $CuSO_4$ va $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ dan iborat aralashma suvda eritilganda 256 g 25% li $CuSO_4$ eritmasi olindi. Eritma tayyorlash uchun olingan suv massasini toping.
A) 193 B)190,2 C) 200 **D)184,8**
Yechimi:
256*0.25=64g $CuSO_4$
n=64/160=0.4mol
$CuSO_4$ ni x mol $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ (0,4-x) mol
Atomlar tengligiga qarab
6x=(0.4-x)*24
X=0,32 mol $CuSO_4$
0.08 mol $CuSO_4 \cdot 5H_2O$
0.08*90=7,2 gr suv bor
Eritmani tayyorlash uchun
256-64-7,2=184,8 gr suv kerak ekan

3. 33^0C dagi $MgSO_4$ ning to'yingan eritmasiga $MgSO_4$ qo'shib qizdirilganda 325 gr 44% li eritma hosil boldi. Eritma boshlangich sh.ga keltirilganda 140 gr $MgSO_4 \cdot 4H_2O$ tarkibli kristallogidrat cho`kmaga tushdi. Dastlabki eritmadagi tuz massasini gr aniqlang.
Yechimi:
325×0,44=143 gr tuz
325-143=182 gr suv

$MgSO_4 \times 4H_2O = MgSO_4 + 4H_2O$
192 g --------120 g tuz----72g
140 g------x=87,5 -----x=52,5g
143-87,5=55,5 g tuz
182-52,5=129,5 g suv

129,5 H_2O------55,5 g tuz
182 gr----------x=78 g tuz
J:78 gr

4. Tarkibida 64% tuz bo'lgan kristallogidrat va suv qanday massa nisbatta aralashtirulganda 40% li eritma hosil bo'ladi.
A)1:2,5 B) 1:0,6 C) 1:0,8 D) 1:1,2
Yechimi:
100 gr eritmada 64 g tuz
40%----------64 g
100%---------x=160 g
160-100=60g suv

100:60
1:0,6
J: B

5. 3 mol $FeSO_4 \times 7H_2O$ ni necha mol suvga aralashtirilsa, olingan eritmadagi H atomlarining massa ulushi 9×10^{-2} bo'ladi?
Yechimi:
$3FeSO_4 \times 7H_2O$
. 42+2x
0,09=----------
. 834+18x
x=87
J:87

6. Tarkibida 64% tuz bo'lgan kristallogidrat va H_2O qanday massa nisbatda aralashtirilganda 40% li eritma hosil bo'ladi?
Yechimi:
64% 40
. \ /
. 40%
. / \
0% H_2O 24
40:24
1:0,6
J:1:0,6

7. $KAl(SO_4)_2 \times 12H_2O$ tarkibli qo'sh tuzning 0,1 moli 30,7 mol suvda eritildi. Hosil bo'lgan eritmadagi tuzlarning massa ulushlarini (%) toping.

Yechimi:

$KAl(SO_4)_2 \times 12H_2O$ Mr=474 g/mol

$2KAl(SO_4)_2 \times 12H_2O \rightarrow K_2SO_4 + Al_2(SO_4)_3$

2 mol----------174 g K_2SO_4
0,1 mol---------x=8,7 g

2 mol--------342 g $Al_2(SO_4)_3$
0,1 mol-------x=17,1 gr

Kristalg(m) 474•0,1=47,4 g
H_2O(m) 30,7•18=552,6 g

Em 47,4+552,6=600 g
K_2SO_4 ω% 8,7/600•100=1,45%
$Al_2(SO_4)_3$ ω % 17,1/600•100=2,85%

J:1,45; 2,85

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. $Me_2CO_3 \cdot 8H_2O$ ozining massasidan 5 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Me_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 38,04 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Na B) K C) Sc D) Cs

2. $CuSO_4 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 5 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $CuSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 40,44% li eritma olindi x ni toping?
A) 5 B) 6 C) 4 D) 3

3. $CuSO_4 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 3 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $CuSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 44% li eritma olindi x ni toping?
A) 5 B) 6 C) 4 D) 3

4. $CuSO_4 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 3 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $CuSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 39,2% li eritma olindi x ni toping?
A) 8 B) 6 C) 7 D) 9

5. $CuSO_4 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 3 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $CuSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 42,1 % li eritma olindi x ni toping?
A) 8 B) 6 C) 7 D) 9

6. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 5 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Na_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 38,8 % li eritma olindi x ni toping?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

7. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 3 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Na_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 41,6 % li eritma olindi x ni toping?
A) 5 B) 6 C) 7 D) 8

8. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 5 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Na_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 38,04 % li eritma olindi x ni toping?
A) 10 B) 9 C) 7 D) 8

9. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 3 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Na_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 40,4 % li eritma olindi x ni toping?
A) 8,8 B) 9 C) 7 D) 8

10. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 5 marta ko'p suvda eritiidi. Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Na_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 37,45 % li eritma olindi x ni toping?
A) 10 B) 11 C) 9 D) 8

11. $MeSO_4 \cdot 5H_2O$ ozining massasidan 5 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $MeSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 40,44% li eritma olindi Me ni toping?
A) Cu B) Fe C) Ca D) Ni

12. $MeSO_4 \cdot 5H_2O$ ozining massasidan 3 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $MeSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 44% li eritma olindi Me ni toping?
A) Cu B) Fe C) Cd D) Ni

13. $MeSO_4 \cdot 8H_2O$ ozining massasidan 5 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $MeSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 39,2 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Cu B) Fe C) Ca D) Ni

14. $MeSO_4 \cdot 8H_2O$ ozining massasidan 3 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda $MeSO_4$ tuzi qoshildi. Natijada 42,1 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Cu B) Ca C) Cd D) Mg

15. $Me_2CO_3 \cdot 6H_2O$ ozining massasidan 5 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Me_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 38,8 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Na B) K C) Ag D) Li

16. $Me_2CO_3 \cdot 6H_2O$ ozining massasidan 3 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Me_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 41,6 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Na B) K C) Rb D) Li

17. $Me_2CO_3 \cdot 10H_2O$ ozining massasidan 5 marta kop suvda eritildi Hosil bolgan eritma massasining yarmiga teng miqdorda Me_2CO_3 tuzi qoshildi. Natijada 37,45 % li eritma olindi Me ni toping?
A) Na B) Cs C) Rb D) Li

18. NaCl eritmasiga undagi tuz massasigacha tuz qo`shildi. Hosil bo`lgan eritmaning ¼ qismicha miqdorda NaCl qo`shilsa, 25 % li eritma olingan bo`lsa, dastlabki eritma necha % li bo`lgan?
A) 6,67 % B) 13,34% C) 10 % D) 5%

19. NaCl eritmasiga undagi tuz massasigacha tuz qo`shildi. Hosil bo`lgan eritmaning ¼ qismicha miqdorda NaCl qo`shilsa, 30 % li eritma olingan bo`lsa, dastlabki eritma necha % li bo`lgan?
A) 14,3 % B) 28,6% C) 21,45 % D) 10,7 %

20. NaCl eritmasiga undagi tuz massasigacha tuz qo`shildi. Hosil bo`lgan eritmaning ¼ qismicha miqdorda NaCl qo`shilsa, 35 % li eritma olingan bo`lsa, dastlabki eritma necha % li bo`lgan?
A) 23,1 % B) 46,2% C) 34,65 % D) 17,3%

Sal boshqachasidan

1. $Na_2CO_3 \cdot xH_2O$ o`zining massasidan 2 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 14,13% li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.
A) 10 B) 7 **C) 8** D) 9

Yechimi: Kristallogidratni ($Na_2CO_3 \cdot xH_2O$) ni 100 g deb olsak 200 g suv qushilgan bo`ladi. Natijada hosil bo`lgan eritma massasi 300 gr bo`ladi. 100 +200 =300 gr eritma

300 gr eritma ———— 100 %

X= ———————14,13 %

X= 42,39 gr tuz bo`lgan.

Dastlabki eritmani 100 gr ekanidan foydalanib suv massasini hisoblaymiz. 100- 42,39 gr = 57,61 gr suv bo`lgan.

$Na_2CO_3 \cdot xH_2O$

42,39 gr —— 57,61 gr

106 gr —— x = 144 gr suv bo`ladi.

H_2O 18 gr —— 1 mol

144 gr —— x mol

x= 8 demak: $Na_2CO_3 \cdot 8H_2O$ bo`lgan.

SamDTU
axborot-resurs markazi

2. $FeCl_2 \cdot nH_2O$ kristallgidrat tarkibida kislorodning massa ulushi 32,16 % ni tashkil etadi. n ni aniqlang
A) 4 B) 3 C) 2 D) 4,7
Yechimi: Kristallogidratni tarkibida kislorodning massa ulushi (%) berilgan. Undan foydlanib tenglama tuzamiz.
$FeCl_2 \cdot nH_2O$

$$\frac{16x}{127 + 18x} = 0{,}3216$$

$16x = 40{,}8432 + 5{,}7888x$
$10{,}2112\,x = 40{,}8432$
$x = 4$ *demak modda tarkibida 4 molekula suv bo`lgan.* $FeCl_2 \cdot 4H_2O$

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. $Na_2CO_3 \cdot nH_2O$ tarkibida uglerodning massa ulushi 4,48% ga teng bo'lsa, n ning qiymatini toping.
A) 7 B) 8 C) 9 D) 10
2. $Na_2CO_3 \cdot XH_2O$ kristallogidritdagi suvning massa ulushini 62,94 % ni tashkil etadi. X ni aniqlang.
A) 10 B) 5 C) 7 D) 12
3. $Na_2SO_4 \cdot nH_2O$ tarkibida natriyning massa ulushi 16,08% ga teng. Bu tuz tarkibida necha mol suv bor?
A) 6 B) 8 C) 10 D) 12
4. Tarkibida magniyning massa ulushi 11.42% ga teng bo'lgan magniy kuparosi $MgSO_4 \cdot nH_2O$ dagi n ning qiymatini toping.
A) 4 B) 5 C) 6 D) 7
5. Temir(III) sulfat kuparosi $Fe_2(SO_4)_3 \cdot nH_2O$ tarkibida oltingugurt bilan temirning massa massa ulushi 40,94% ga teng bo'lsa n ning qiymatini toping.
A) 8 B) 10 C) 12 D) 6
6. Alyuminiy nitrat kristallgidrati $Al(NO_3)_3 \cdot nH_2O$ tarkibida azotning massa ulushi 11,2 % ga teng bo'lsa, n ning qiymatini toping.
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
7. Alyuminiy sulfat kristallgidrati $Al_2(SO_4)_3 \cdot nH_2O$ tarkibida alyuminiy ning massa ulushi 10,34% ga teng bo'lsa, n ning qiymatini toping.
A) 10 B) 12 C) 14 D) 16
8. Bura deb ataluvchi $Na_2B_4O_7 \cdot nH_2O$ tarkibida borning massa ulushi 0,185 ga teng bo'lsa, n ning qiymatini toping.
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8
9. $Na_2SO_4 \cdot xH_2O$ o'zining massasidan 4 marta ko'p suvda eritiidi. Natijada 8,82% li eritma olindi. x ni toping?
A) 10 B) 11 C) 12 D) 9
10. $Na_2CO_3 * xH_2O$ o`zining massasidan 3 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 10,6% li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
11. $Na_2CO_3 * xH_2O$ o`zining massasidan 4 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 8,48% li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
12. $Na_2CO_3 * xH_2O$ o`zining massasidan 2 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 13,18% li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.
A) 10 B) 7 C) 8 D) 9
13. $Na_2CO_3 * xH_2O$ o`zining massasidan 3 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 9,89% li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.
A) 10 B) 7 C) 8 D) 9
14. $Na_2CO_3 * xH_2O$ o`zining massasidan 4 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 7,91 % li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.

A) 6 B) 10 C) 8 D) 9

15. $Na_2CO_3*xH_2O$ o`zining massasidan 2 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 12,35 % li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.

A) 7 B) 10 C) 11 D) 9

16. $Na_2CO_3*xH_2O$ o`zining massasidan 4 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 7,41 % li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.

A) 11 B) 10 C) 7 D) 9

17. $Na_2SO_4*xH_2O$ o`zining massasidan 2 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 16,55 % li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.

A) 6 B) 7 C) 8 D) 9

18. $Na_2SO_4*xH_2O$ o`zining massasidan 3 marta ko`p suvda eritildi. Natijada 11,02 % li eritma hosil bo`ldi. X ni aniqlang.

A) 12 B) 10 C) 11 D) 9

19. $Al_2O_3*2SiO_2*xH_2O$ kristallogidratidagi O ning massa ulushi 55,8 % bo`lsa, x ni toping.

A) 1 B) 3 C) 2 D) 5

20. $K_2O*Al_2O_3*xSiO_2$ aralashmasidagi O ning massa ulushi 46 % bo`lsa, x ni toping.

A) 5 B) 6 C)4 D) 12

